Surxondaryo viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun (dastlabki ma’lumotlar)

I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar
II. Doimiy aholi soni
III. Tug‘ilganlar va vafot etganlar
IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
V. Aholi migratsiyasi
VI. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama’lumotlari

I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari hisobga olingan holda 2026-yil 1-oktabr holatiga Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni **3 030,0** ming kishini tashkil qildi va bu 2025-yilning mos davriga nisbatan **2,2** foizga o‘sishni ko‘rsatdi. 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **59,9** ming kishini, vafot etganlar soni 8**,7** ming kishini tashkil etdi, tabiiy o‘sish esa **51,2** ming kishiga yetdi. Xorijdan ko‘chib kelganlar soni **15** nafarni, xorijga ko‘chib ketganlar soni esa **21** nafarni tashkil qilgan. Shu davrda **13,3** mingta nikoh va **2,6** mingta ajrim qayd etildi.

Doimiy aholi soni		*ming kishi*
Tug‘ilganlar soni	**5**	*ming kishi*
Vafot etganlar soni	**8**	*ming kishi*
Xorijdan ko‘chib kelganlar	**15**	*kishi*
Xorijga ko‘chib ketganlar	**21**	*kishi*
Nikohlar soni	**1**	*ming birlik*
Nikohdan ajralishlar soni	**2**	*ming birlik*

II. Doimiy aholi soni

Doimiy aholi soni shahar joylarida **1 227,4** ming kishini (jami aholining **40,5** foizi), qishloq joylarida esa **1 802,6** ming kishini (**59,5** foizi) tashkil etdi. Aholining **1 488,4** ming nafarini (**49,1** foizi) ayollar, **1 541,6** ming nafarini (**50,9** foizi) erkaklar tashkil etdi.

-

	2025-yil	2026-yil	*O‘sish sur’ati, %da*
Surxandaryo	**2 964,6**	**3 030,0**	**102,2**
Termiz shahri	183,5	188,2	**102,6**
Oltinsoy tumani	192,0	196,6	**102,4**
Angor tumani	148,7	151,7	**102,0**
Bandixon tumani	85,1	87,3	**102,6**
Boysun tumani	127,3	129,5	**101,7**
Muzrabot tumani	153,1	156,1	**102,0**
Denov tumani	435,6	445,6	**102,3**
Jarqo’rg’on tumani	252,4	258,2	**102,3**
Qumqo’rg’on tumani	256,0	261,7	**102,2**
Qiziriq tumani	121,3	124,0	**102,2**
Sariosiyo tumani	232,6	237,3	**102,0**
Termiz tumani	134,9	138,3	**102,5**
Uzun tumani	194,1	198,5	**102,3**
Sherobod tumani	208,9	212,8	**101,9**
Sho’rchi tumani	239,1	244,2	**102,1**

2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, viloyat bo‘yicha aholi zichligi bir kvadrat kilometrga **150,8** kishini tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich 2025-yil 1-oktabr holati bilan solishtirganda **3,3** kishiga ko‘p (2025-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km ga **147,5** kishi to‘g‘ri kelgan).

‘g‘ri keladigan aholi soni



2022-y. 2023-y. 2024-y. 2025-y. 2026-y.


Mavzu bo‘yicha ko‘rsatkichlar:
Doimiy aholi soni (jami, choraklik)
Doimiy aholi soni (ayol, choraklik)
Doimiy aholi soni (erkak, choraklik)
Doimiy aholi soni (shahar, choraklik)
Doimiy aholi soni (qishloq, choraklik)
Aholi zichligi (jami, choraklik)

III. Tug‘ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **59,9** ming kishini, tug‘ilish koeffitsiyenti esa **26,6** promilleni tashkil etdi. Tug‘ilganlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,2** ming kishiga kamaydi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni **8,7** ming kishini, o‘lim koeffitsiyenti esa **3,9** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,0** ming kishiga kamaydi.


Yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Ko‘rib chiqilayotgan davrda viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni jami **59,9** ming kishini tashkil etdi. Shundan **30,8** ming nafari (tug‘ilganlarning umumiy soniga nisbatan **51,4** %) o‘g‘il bolalar, **29,1** ming nafari (**48,6** %) esa qizlardir. Ularning **20,5** ming nafari (tug‘ilganlarning umumiy soniga nisbatan **34,2** %) shahar joylarda, **39,4** ming nafari (**65,8** %) qishloq joylarda dunyoga kelgan.

Mazkur davrda viloyat bo‘yicha vafot etganlarning umumiy soni **8,7** ming kishini tashkil qildi. Shundan **4,9** ming nafari (vafot etganlarning umumiy soniga nisbatan **56,3** %) erkaklar, **3,8** ming nafari (**43,7** %) ayollardir. Ularning **3,2** ming nafari (vafot etganlarning umumiy soniga nisbatan **36,8** %) shahar joylarda, **5,5** ming nafari (**63,2** %) esa qishloq joylarda yashovchilar bo‘lgan.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar va vafot etganlarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi



Mavzu bo‘yicha ko‘rsatkichlar:


Tug‘ilganlar soni (jami, choraklik)
Tug‘ilganlar soni (qiz bolalar, choraklik)
Tug‘ilganlar soni (o‘g‘il bolalar, choraklik)
Vafot etganlar soni (jami, choraklik)
Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari (jami, choraklik)

IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatda 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida **13,3** mingta nikoh qayd etildi va nikoh koeffitsiyenti **5,9** promilleni tashkil qildi. Nikohlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,7** mingtaga kamaygan.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida **2,6** mingta ajrim qayd etildi, ajrimlar koeffitsiyenti **1,2** promillega teng bo'ldi. Ajrimlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,2** mingtaga oshgan.


Yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar va ajrimlar soni, ming birlik



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **13,3** mingtani, shundan shahar joylarida **4,6** mingtani (**34,6** %), qishloq joylarida **8,7** mingtani (**65,4** %) tashkil etdi.

Ajrimlar soni **2,6** mingtani, shundan shahar joylarida **1,0** mingtani (38**,5** %), qishloq joylarida **1,6** mingtani (61**,5**%) tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar va ajrimlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

Tuzilgan nikohlar soni (jami, choraklik)

Tuzilgan nikohlar soni (shahar, choraklik)

Tuzilgan nikohlar soni (qishloq, choraklik)

Ajrimlar soni (jami, choraklik)

Ajrimlar soni (shahar, choraklik)

Ajrimlar soni (qishloq, choraklik)

V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat ichida va chetdan ko‘chib kelganlarning jami soni **10 684** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar **10 669** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar **15** kishini tashkil etdi.

Ko‘chib ketganlarning jami soni **13 681** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar **13 660** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar **21** kishini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni, kishi

	Ko‘chib kelganlar soni			Ko‘chib ketganlar soni		
	Jami	*shundan:*		Jami	*shundan:*	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Surxandaryo	**10 684**	**10 669**	**15**	**13 681**	**13 660**	**21**
Termiz shahri	3 079	3 071	8	2 663	2 661	2
Oltinsoy tumani	315	315	0	577	576	1
Angor tumani	481	480	1	650	646	4
Bandixon tumani	321	321	0	361	361	0
Boysun tumani	393	392	1	682	682	0
Muzrabot tumani	413	412	1	623	622	1
Denov tumani	671	671	0	1 215	1 214	1
Jarqo’rg’on tumani	665	665	0	1 016	1 010	6
Qumqo’rg’on	701	701	0	1 047	1 047	0
Qiziriq tumani	330	330	0	459	458	1
Sariosiyo tumani	382	382	0	733	733	0
Termiz tumani	1 615	1 614	1	1 455	1 451	4
Uzun tumani	355	352	3	578	577	1
Sherobod tumani	443	443	0	783	783	0
Sho’rchi tumani	520	520	0	839	839	0

Y



Mavzu bo‘yicha ko‘rsatkichlar:
Ko‘chib kelganlar soni (jami, choraklik)
Ko‘chib ketganlar soni (jami, choraklik)

b r o y l a r .

VI. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama’lumotlari

Doimiy aholi soni va uning tarkibiga oid ko‘rsatkichlar 2026-yilda o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari asosida hisoblangan bo‘lib, o‘tgan yillarning mos davrlari bo‘yicha doimiy aholi soni va aholi zichligi ko‘rsatkichlari ham tegishli tartibda qayta hisoblangan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda tegishli ma’muriy axborot tizimlari o‘rtasida idoralararo elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun barcha zarur ma’lumotlar integratsiya yo‘li bilan elektron shaklda olinayotganligi sababli, statistik kuzatuvning alohida shakli tasdiqlanmagan.

Statistika organlari demografik ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni shakllantirish uchun boshqa davlat organlari (Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati hamda migratsiyasi to‘g‘risidagi ma’muriy ma’lumotlarni qayta ishlaydi.

Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlari quyidagi ma’muriy ma’lumotlar manbalari asosida shakllantiriladi:

- tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi.

Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotnomalarini kodlashtirish bo‘yicha qo‘llanma

Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom

Tayyorlash uchun mas’ul:
Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi

Manzil: *190108, Termiz shahar, at-Termiziy ko‘chasi,7-uy*
Elektron pochta:
www.surxonstat.uz,,e-mail,
e-mail:info@surxonstat.uz,
surxon.stat@exat.uz
Tel.: (55) 541-80-00